

BIRINCHI PREZIDENTNI YOD ETIB...

O'tganlar ruhini shod etishdek xayrli harakat ro'zai ramazon kunlarida amalga oshirilsa yanada savobliroq bo'lishi haq. 27 may kuni "Gidromelioratsiya" fakulteti ikkinchi bosqich "meliorativ gidrogeologiya" yo'nalishi 215 guruh talabalari hamda guruh murabbiysi S.Qodirovlar yurtimizning birinchi prezidenti I.A.Karimov memorial muzeyiga borishdi. Muzeyga tashrif davomida talabalar birinchi yurtboshimiz hayotiga doir qiziqarli va mazmunli videoroliklar, fotosuratlar, turli davlatlar rahbarlari tomonidan taqdim etilgan medallar, esdalik sovg'alari bilan tanishishdi. Muzeyda yaxshi odat bor ekan: har bir tashrif buyuruvchi guruhga birinchi prezidentimiz hayot yo'lini qisqacha bayon qiladigan hujjatli film diski hamda kitobchasi berilar ekan. O'ylaymanki, ushbu tashrif guruh talabalarining hayotida chuqur iz qoldiradi. Alloh o'tganlarning oxiratini obod qilsin!



"Gidrologiya va gidrogeologiya" kafedrasida assistenti S.M.Qodirov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov